

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



1-keys. “Buvimning hayron qolishi”



Vaziyat:

Mohira buvisiga telefon orqali navbat olishga yordam berdi. Buvisi: “Avvallari buning uchun ancha vaqt sarflardik”, — dedi. Mohira esa: “Demak, ayrim ishlar hozir ancha osonlashibdi”, — deb javob berdi.




Savollar:

- 1 Mohira buvisiga qanday yordam berdi?
- 2 Vaqtni tejash odamlar uchun nima sababdan muhim?
- 3 Yangi qulayliklardan foydalanishda kattalarga qanday yordam berish mumkin?
- 4 Sen biladigan qanday zamonaviy qulayliklar bor?



Topshiriq:

Uyda kattalardan “Avval qiyin bo‘lgan, hozir esa osonlashgan bitta ish” haqida so‘rab keling.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK
VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



2-keys. “Yangi maydoncha — kimniki?”



Vaziyat:

Mahallada yangi bolalar maydonchasi ochildi. Bir kuni ikki bola o‘rindiqqa chizib qo‘ydi, yana biri qog‘ozni yerga tashladi. Ziyoda ularga: “Bu joy hammamizniki-ku, uni asrashimiz kerak”, — dedi.



Savollar:

1

Ziyoda nega bunday dedi?

2

Yangi qurilgan joylarni kimlar asrashi kerak?

3

Sen shu yerda bo‘lsang, bolalarga nima derding?

4

Umumiy joyni asrash Vatanga mehr bilan qanday bog‘liq?



Topshiriq:

“Asraymiz!” shiori ostida uchta qisqa qoida tuzing.

1.

2.

3.